

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**SULTANOVA NIGINA UTKUROVNA**

**CHAKANA SAVDO XIZMATLARI SOHASIDA KORXONALAR  
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY  
MEXANIZMI**

**08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Sultanova Nigina Utkurovna**

Chakana savdo xizmatlari sohasida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi..... 3

**Султанова Нигина Уткуровна**

Организационно-экономический механизм повышения конкурентоспособности предприятий сферы розничных торговых услуг..... 27

**Sultanova Nigina Utkurovna**

Organizational and economic mechanism of increasing the competitiveness of enterprises in the field of retail trade services..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**SULTANOVA NIGINA UTKUROVNA**

**CHAKANA SAVDO XIZMATLARI SOHASIDA KORXONALAR  
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY  
MEXANIZMI**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2PhD/Iqt2911 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Arabov Nurali Uralovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muxammedov Murod Muxammedovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Murodova Nodira Kuliyeвна**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies\_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies\_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.E.Po‘latov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**Sh.O.Kuvandikov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

**M.M.Muxammedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi sharoitida chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni yuqori darajada va sifatli qondirish orqali aholi farovonligini oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim omiliga aylanib bormoqda. "Jahonda chakana savdo hajmi 2021-yildagi 24,2 trln. AQSH dollari hajmidan 2025-yilga kelib, taxminan 31,7 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilingan bo'lib, globallashuv va bozorlar hamda mamlakatlar o'rtasidagi turli shartnoma va kelishuvlar natijasida ko'plab chakana savdo korxonalari biznes yuritish imkoniyatiga ega bo'lishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Bugungi kunda chakana savdo xizmatlari sohasida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish orqali ular faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladigan va samarali raqobat strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiluvchi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlash, sohada raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqish, chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini baholash usullarini takomillashtirish, chakana savdo korxonalari strategik raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda chakana savdo xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish, korxonalar xo'jalik faoliyati samaradorligini ta'minlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Yurtimizda 2 mingdan ziyod mahalla xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan. Bunday hududlarni ko'paytirish maqsadida, aholisi 20 mingdan oshadigan mahallalarda chakana savdo va xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etiladi. Bu markazlar ham 5 yil muddatga yer va mol-mulk solig'idan ozod etiladi"<sup>2</sup>. Bu vazifalarni hal etishda chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlash, chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini baholash usullarini takomillashtirish, chakana savdo korxonalari strategik raqobatbardoshligini oshirish, iste'molchilarning chakana savdo xizmatlariga talabini qondirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5813-son "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 30-oktabrdagi PF-5564-son "Tovar bozorlarida savdoni

<sup>1</sup> <https://www.statista.com/statistics/report-content/statistic/443522>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 19-aprel kuni mahallabay ishlash tizimi natijadorligini oshirish hamda aholi bandligini ta'minlash masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi. <https://president.uz/uz/lists/view/5133>

yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 4-iyundagi PQ-5136-son “Ko‘chma savdo faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish va savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Savdo xizmatlarining rivojlanishi va servis iqtisodiyotining shakllanishi, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik, raqobat va raqobatbardoshlik muammolarining fundamental asoslari xorijlik olimlar<sup>3</sup>, jumladan, J.M.Keyns, A.Marshall, M.Fisher, M.Porter, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, A.Pigu, Y.A.Shumpeter va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Chakana savdo sohasi korxonalarida xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish masalalarining ilmiy-metodologik asoslari xorijlik olimlar<sup>4</sup>, jumladan: G.L.Azoyev, A.S.Barabanov, D.S.Voronov, I.Voinov, Y.Y.Gupanova,

---

<sup>3</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. – М.: Прогресс-Т.3. 1984. -119 с.; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987. -500 p.; Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. 3-е изд. [Текст] / М. Портер. - М.: Алпина Бизнес Букс, 2008. - 720 с.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.: ПИТЕР, ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.; Пигу А. Экономическая теория благосостояния / Пигу А.: В 2 т. - М.: Прогресс - Т.2- 1985. – 240 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.

<sup>4</sup> Азоев Г.Л. Конкурентные преимущества фирмы: учебное пособие [Текст]/ Г.Л. Азоев, А.П. Челенков. - М.: Гос. Ун-т упр., Нац. Фонд подготовки кадров, 2007. - 256 с.; Барабанов А.С. Управление региональной конкурентоспособностью [Текст]: монография / А.С. Барабанов под науч. рук. д.э.н. Т.В. Усковой. - Вологда: ИСЭРТ РАН, 2014. - 160 с.; Воронов Д.С. Динамический подход к оценке конкурентоспособности предприятий [Текст] / Д.С. Воронов // Маркетинг в России и за рубежом. - 2014. - № 5. - С. 92 - 102.; Воинов И. Качество как концепция развития услуг / И.Воинов // Ресурсы. Информация. Снабжение. Конкуренция. – 2010. - № 1. – С. 251-255; Гупанова Ю.Е. Формирование методологии управления качеством / Ю.Е. Гупанова // Вестник ИНЖЭКОНА. Сер. Экономика. – 2009. - № 7. – С. 123-133; Дзахмишева И.Ш. Методика оценки конкурентоспособности услуг в розничной торговой сети / И.Ш.Дзахмишева // Маркетинг в России и за рубежом. – 2004. -№3. – С. 93-108; Егоров В.Ф. Организация торговли: учебник / В.Ф.Егоров. – СПб.: Питер, 2006. – 352 с.; Нюмен Э. Розничная торговля: организация и управление / Э.Нюмен, П.Колен - СПб.: Питер, 2005. - 416 с.; Памбухчиянц О.В. Организация коммерческой деятельности: учебник / О.В. Памбухчиянц. – М.: Дашков и Ко, 2004. – 442 с.; Рубин Ю. Б. Тактика конкурентных действий участников рынка [Текст]/ Ю.Б. Рубин // Современная конкуренция. - 2015. - Т. 9. № 2 (50). - С. 111 - 142.; Трусова С.В. Современные подходы к оценке качества торгового обслуживания на предприятиях розничной торговли / С.В.Трусова // Сегодня и завтра российской экономики. – 2009. – Вып. 27. – С. 142-148.

I.Sh.Dzaxmisheva, V.F.Yegorovoy, M.A.Nikolayeva, E.Nyumen, P.Kolen, O.V.Pamxbuxchiyans, Y.B.Rubin, S.V.Trusova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan<sup>5</sup> M.Q.Pardayev, M.E.Po'latov, M.M.Muxammedov, B.A.Abdukarimov, K.B.Urazov, B.I.Isroilov, I.K.Yo'ldoshev, N.A.Kamilova, F.B.Abdukarimov, O.M.Pardayev, U.N.Normurodov va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Ushbu ilmiy tadqiqotlarda chakana savdo korxonalari faoliyati, rivojlanish xususiyatlari, chakana savdo xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish omillari va mexanizmlari ochib berilgan. Biroq respublikamizda chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini baholash usullari va raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur muammolarni iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ahamiyatlilik va to'liq o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarini aniqlashga imkon yaratadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida chakana savdo sohasida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

"chakana savdo" va "chakana savdo korxonasining raqobatbardoshligi" kategoriyalarining iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy tahlil qilish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish omillari tasnifini ishlab chiqish;

---

<sup>5</sup> Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J., Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. – 384 b.; Po'latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti). O'quv qo'llanma. T.: Fan va texnologiya, 2018. – 296 b.; Muxammedov M.M., Pardayev M.Q., Zaynalov J.R., Aslanova D.H. va boshq. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Fan va texnologiyaliya", 2018, 125-bet.; Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik I – qism, – Toshkent, «Iqtisodmoliya» 2010.; Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Savdo korxonalarining iqtisodiy tahlili. O'quv qo'llanma, 1-2 qism, – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2001; Muxammedov M.M., Altinbaev R.I., Kutbetdinov A.T., Abdukarimov B.A. «Экономика торговли». Учебное пособие. – Самарканд. 1998; Yo'ldoshev I.K. Savdo korxonalari iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T. TDIU, 2005; O'razov K.B. «Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish», O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004; Shodmonov Sh.Sh, G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: TDIU, 2010. – 585 b.; Abdukarimov B.A., Komilova N.A., Abdukarimov F.B. Актуальные вопросы развития торговли в Узбекистане. Монография. – T., «Иқтисодиёт», 2010; Фаттахов А.А. Рыночное механизма и интенсификация оптовой торговли. Монография. – T., ТГЭУ, 2002. Normurodov U.N. «O'zbekistonda savdo korxonalari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish» mavzusidagi dissertatsiya ishi. Samarqand – 2022.

chakana savdo sohasida raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqishga ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish;

chakana savdo xizmatlari sohasida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasini o'rganish;

Samarqand viloyatida chakana savdo sohasining rivojlanish holatini tahlil qilish;

viloyatda chakana savdo xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik tahlilini amalga oshirish;

chakana savdo xizmatlari sohasida korxonalar raqobatbardoshligini baholash usullarini aniqlash;

chakana savdo korxonalarini strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning konseptual modelini ishlab chiqish;

chakana savdo korxonalarini strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;

Samarqand viloyatida chakana savdo korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish va samarali rivojlanishining istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Samarqand viloyati chakana savdo korxonalarining faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qo'yilgan vazifalarni hal etishda tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, SWOT-tahlili, statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "chakana savdo korxonasining raqobatbardoshligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqiblarga nisbatan afzalliklarga ega bo'lgan holda raqobat ustunligiga erishish imkonini beruvchi raqobat strategiyasini shakllantirish sharoitida korxonalarining strategik salohiyatidan foydalanish, potensial mijozlarning ehtiyojlarini maksimal qondirish, ularga sifatli savdo xizmatlarini ko'rsatish qobiliyati nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini integral baholash usuli chakana savdo korxonasining tovar ( $TR = 0,16$ ) va brend ( $BR = 0,18$ ) raqobatbardoshligi, moddiy-texnik ( $MTS = 0,12$ ), moliyaviy ( $MS = 0,21$ ), mehnat ( $MehS = 0,11$ ) hamda savdo ( $SS = 0,22$ ) salohiyati ko'rsatkichlarining vazn koeffitsiyentlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

chakana savdo korxonasining raqobatbardoshligi korxonaning barcha tarkibiy bo'limlari faoliyatlarini yagona tizimga birlashtirish hamda korxonaning strategik raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ularning faoliyatini maqsadli boshqarishning tasniflash, ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish, guruhlariga ajratish, raqobat strategiyalarini tanlash, strategik maqsadlarni belgilash bosqichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

Samarqand viloyatida chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish va samarali rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar asosiy faoliyat parametrlarining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi chakana savdo xizmatlarining rivojlanish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan dinamik rivojlanishini tavsiflovchi tashqi hamda korxonaning salohiyatini ifodalovchi ichki omillarga guruhlash asosida takomillashtirilgan;

korxonalarni tasniflash, bozor strategiyasini tahlil qilish, raqobat strategiyalarini tanlash, strategik maqsadlarni belgilash hamda korxonalar raqobatbardoshligining strategik xaritasini shakllantirish asosida chakana savdo korxonasining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning konseptual modeli ishlab chiqilgan;

chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalari tadqiq etilib, ularni mamlakatda qo'llash yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi hamda olingan natijalar manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan amaliyotida qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xizmat ko'rsatish bozorida chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini baholash va raqobatbardoshlikni ta'minlashning strategik yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha xulosalar mazkur sohaga oid metodologik-uslubiy asoslarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xizmat ko'rsatish bozorida chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha muallif tomonidan taklif etilgan ilmiy va uslubiy yondashuv chakana savdo korxonalari faoliyatida raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqish va asoslashda qo'llanilishi, shuningdek, korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini baholash va raqobatbardoshlikni ta'minlashning strategik yo'nalishlarini amalga oshirishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chakana savdo sohasida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "chakana savdo korxonasining raqobatbardoshligi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini raqiblarga nisbatan afzalliklarga ega bo'lgan holda raqobat ustunligiga erishish imkonini beruvchi raqobat strategiyasini shakllantirish sharoitida korxonalarining strategik salohiyatidan foydalanish, potensial mijozlarning ehtiyojlarini maksimal qondirish, ularga sifatli savdo xizmatlarini ko'rsatish qobiliyati nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari

talabalari uchun tavsiya etilgan “Savdo iqtisodiyoti” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 22-avgustdagi 284-sonli buyrug‘i). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda korxonalarining strategik salohiyatidan foydalanish, potensial mijozlarning ehtiyojlarini maksimal qondirish, ularga sifatli savdo xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyati nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “chakana savdo korxonasining raqobatbardoshligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini integral baholash usuli chakana savdo korxonasining tovar ( $TR = 0,16$ ) va brend ( $BR = 0,18$ ) raqobatbardoshligi, moddiy-texnik ( $MTS = 0,12$ ), moliyaviy ( $MS = 0,21$ ), mehnat ( $MehS = 0,11$ ) hamda savdo ( $SS = 0,22$ ) salohiyati ko‘rsatkichlarining vazn koeffitsiyentlarini aniqlash asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan hududiy boshqarmalari amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 19-fevraldagi 9/06-30-3070-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida chakana savdo korxonalari faoliyatidagi zaif bo‘g‘inlarni o‘z vaqtida aniqlash va ko‘rsatkichlarni maqsadli ravishda moslashtirish hamda ularning eng oqilona qiymatlarini ta’minlash imkonini bergan;

chakana savdo korxonasining raqobatbardoshligi korxonaning barcha tarkibiy bo‘limlari faoliyatlarini yagona tizimga birlashtirish hamda korxonaning strategik raqobatbardoshligini ta’minlash uchun ularning faoliyatini maqsadli boshqarishning tasniflash, ma’lumotlarini to‘plash va tahlil qilish, guruhlariga ajratish, raqobat strategiyalarini tanlash, strategik maqsadlarni belgilash bosqichlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan hududiy boshqarmalari amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 19-fevraldagi 9/06-30-3070-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish korxonaning funksional bo‘limlari va boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy funksiyalari o‘rtasidagi munosabatlar samaradorligini oshirish imkonini bergan;

Samarqand viloyatida chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish va samarali rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan asosiy faoliyat parametrlarining prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan hududiy boshqarmalari amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 19-fevraldagi 9/06-30-3070-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida chakana savdo korxonalari faoliyatini miqdor va sifat jihatidan baholashning uslubiy vositalarini takomillashtirish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va istiqbolda strategik rivojlanish vektorini aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 17 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 2 ta va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 151 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "**Chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-metodolgik asoslari**" deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda xizmat ko'rsatish sohasida chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning nazariy yondashuvlarini ilmiy jihatdan tahlil etish asosida "chakana savdo" hamda "chakana savdo korxonalarida raqobatbardoshlik" kategoriyalarining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi, shuningdek, chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy ahamiyati, mohiyati va nazariy yondashuvlar, chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish omillari tasnifi hamda chakana savdo sohasida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasi o'rganilgan.

Raqobatbardoshlik va uni mustahkamlash bilan bog'liq muammolar bugungi kunda dolzarb bo'lib bormoqda. Bunda muhim masala nafaqat tovarlar va xizmatlar, balki alohida subyektlar, tarmoqlar va umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo'lib qolmoqda. Zero raqobatbardoshlik iqtisodiyot samaradorligini va jamiyat taraqqiyotining barqarorligini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi.

Chakana savdo – bu tovarni bevosita iste'molchilarga shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun donalab sotish bilan bog'liq bo'lgan savdo sohasidagi tadbirkorlik faoliyati bo'lib, chakana savdo tovarlarni aholiga shaxsiy iste'mol uchun, tashkilotlar, korxonalar, muassasalar jamoaviy iste'mol yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun sotishni o'z ichiga oladi.

Chakana savdo korxonasining raqobatbardoshligi – bu raqiblarga nisbatan afzalliklarga ega bo'lgan holda raqobat ustunligiga erishish imkonini beruvchi

raqobat strategiyasini shakllantirish sharoitida korxonalarning strategik salohiyatidan foydalanish, potensial mijozlarning ehtiyojlarini maksimal qondirish, ularga sifatli savdo xizmatlarini ko'rsatish qobiliyati tushuniladi.



**1-rasm. Chakana savdo korxonasining raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadigan omillar<sup>6</sup>**

<sup>6</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, xorijiy va mahalliy olimlar chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi omillar majmuasini turli yo'llar bilan asoslaydilar. Tadqiqot jarayonida chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi chakana savdo xizmatlarining rivojlanish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan dinamik rivojlanishini tavsiflovchi tashqi hamda korxonaning salohiyatini ifodalovchi ichki omillarga guruhlash asosida takomillashtirildi.

Chakana savdo korxonalarining samarali ishlashi uchun imkoniyat yaratadigan yoki tahdidlarni keltirib chiqaradigan korxonadan tashqarida faoliyat yurituvchi subyektlar va omillar tashqi makromuhit ta'siri bilan bog'liq omillar hisoblanadi. Makromuhit korxonaning tashqi muhitda bo'lishi uchun umumiy sharoitlarni yaratadi. Makromuhit shakllanishi geografik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va ilmiy-texnik omillar ta'sirida vujudga keladi.

Tashqi mikromuhit – bu korxonaning chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini belgilaydigan, korxonaning o'zi tomonidan yaratilgan va tartibga solinadigan obyektiv mezonlar hisoblanadi.


Ichki omillar korxonaning raqobatbardoshligini oshirish yoki pasaytirishga ta'sir qilishi mumkin. Ular korxonaning strategik salohiyatidan foydalanish vositalari va usullarini belgilaydi. Ichki omillarga asoslangan raqobat ustunligini qo'lga kiritish strategik salohiyatdan qanchalik samarali foydalanilishiga bog'liq.

Chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashning imkoniyatlari ichki muhit omillariga bevosita bog'liq. Shuning uchun savdo korxonasining raqobatbardoshligi ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'sirini kompleks baholashni amalga oshirish zarur degan xulosa chiqarish mumkin (1-rasm).

Tovarlarni pirovard mijozlarga muvaffaqiyatli sotishga erishish uchun chakana savdo korxonalari tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan funksiyalar mavjud. Mazkur funksiyalar korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sir etib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: bozor konyunkturasini tadqiq etish hamda bozorda talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish; keng assortimentni shakllantirish hamda iste'molchilarning tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal qondirilishiga erishish; tovar aylanmasini yo'lga qo'yish, shu bilan birga tovar harakati va chakana savdo korxonalarini tovar bilan ta'minlash orqali iste'molchilarga yetkazib berish; tovar moddiy zahiralarni shakllantirish; chakana savdo korxonalarining brendini mustahkamlash maqsadida reklama tadbirlarini amalga oshirish; savdo va texnologik jarayonlarni amalga oshirish. Shuningdek, tovarlarni saqlash, tijoratni takomillashtirish; tovarlarni xaridorga sotishning optimal usullarini taklif qilish; xaridorlarga servis xizmatlarini taqdim etish orqali tovar sotib olish va sotuvdan keyingi xizmatlarni taklif qilish; savdo jarayonlarini takomillashtirish hamda xaridorlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy yondashuvlarga asoslangan chakana savdoning asosi – brend tovarlarning mashhurligi, globallashtirish va global tarmoqlarning rivojlanib borishidir. Shunga muvofiq ravishda zamonaviy iste'molchilar atrofidagi muhit o'zgarishiga o'ta sezgir, individual qiyofaga, fikrlash doirasiga, turmush tarziga ega. Shunday ekan, mazkur vaziyatda asosiy e'tibor, tadbirkorlikni samarali olib

borishda namoyon bo‘ladi. O‘tkazilgan tadqiqot hamda xaridorlar talablaridan kelib chiqqan holda, chakana savdo faoliyatining rivojlanish shart-sharoitlari quyidagi asosiy holatlarni o‘z ichiga oladi: mijoz istaklariga faol javob berish; shaxsiylashtirish; 3D texnologiyalaridan foydalanish; interaktivlik; tijorat jarayonlarining moslashuvchanligi (2-rasm).



**2-rasm. Chakana savdo faoliyatining rivojlanish shart-sharoitlari<sup>7</sup>**

Chakana savdo korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish hamda ularni amalda qo‘llash raqobat ustunligini ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Shunga asoslanib, mamlakatimiz chakana savdo korxonalarida jahonning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari tajribasidan foydalanish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi: zamonaviy texnologik infratuzilmani rivojlantirish; yangi xizmat ko‘rsatish korxonalarini tashkil etishning samarali usullaridan foydalanish, raqamli chakana savdo foyliyatini kengaytirish, korxonalar rahbarlarining ijtimoiy mas‘uliyati darajasini oshirish, chakana savdo sohasida korporativ

<sup>7</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

madaniyatni shakllantirish, chakana savdo ta'minot zanjirini joriy etish, tarmoqda innovatsion biznes modellarini qo'llash.

Dissertatsiya ishining **“Samarqand viloyati chakana savdo korxonalarining rivojlanish holati va ularning raqobatbardoshligini baholash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida viloyatda chakana savdo korxonalarining rivojlanish holati va tendensiyalari hamda chakana savdo xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, korxonalarining raqobatbardoshligini baholash usullari tadqiq qilingan.

Savdo korxonalarini raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri – chakana savdo tovar aylanmasi bo'lib, mamlakatlarning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida statistik hisobotlarda qo'llaniladi. Quyida viloyatda chakana savdoning holatiga baho berishda chakana savdo tovar aylanmasining tahlilini amalga oshirdik (1-jadval).

Hozirgi kunda Samarqand viloyatida chakana savdo sohasi iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Keltirilgan ma'lumotlar hududda chakana savdo korxonalarini tovar aylanmasi barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

### 1-jadval

#### Samarqand viloyati tumanlari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi<sup>8</sup> (mlrd.so'm)

Samarqand viloyati tuman va shaharlari	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-yil 2019-yilga nisbatan o'sish, (%) yoki marta
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>13877,3</b>	<b>16816,8</b>	<b>21617,9</b>	<b>27232,9</b>	<b>30216,6</b>	2,3 marta
Samarqand sh.	4231,8	6358,0	8346,0	10931,7	10474,3	2,5 marta
Kattaqo'rg'on sh.	772,9	912,2	1144,5	1591,7	1788,0	2,3 marta
Oqdaryo	287,3	458,1	546,2	657,7	736,2	2,6 marta
Bulung'ur	724,1	730,0	901,4	1084,9	1252,6	173,0
Jomboy	388,1	588,1	787,8	985,6	1079,1	2,8 marta
Ishtixon	605,4	596,1	719,3	868,8	1060,2	175,1
Kattaqo'rg'on	564,7	738,0	944,4	1115,6	1736,3	3,1 marta
Qo'shrabot	444,7	370,4	484,8	462,2	515,7	116,0
Narpay	463,2	559,4	700,1	806,9	959,6	2,1 marta
Payariq	476,5	663,1	830,8	967,2	1120,3	2,3 marta
Pastdarg'om	952,0	1025,2	1196,4	1442,0	1697,3	178,3
Paxtachi	485,0	346,5	431,0	520,4	603,4	124,4
Samarqand	872,0	825,0	1146,4	1628,5	2535,8	2,9 marta
Nurobod	510,9	416,0	511,2	449,7	510,6	113,5
Urgut	1703,0	1751,8	2238,6	2756,8	3272,3	192,1
Tayloq	395,7	478,9	689,1	963,2	874,9	2,2 marta

<sup>8</sup> Manba: Samarqand viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotoari asosida hisoblangan.

Chakana savdo tovar aylanmasi 2019-2023-yillarda 2,3 martaga o‘sgan. Samarqand viloyati shahar va tumanlari kesimida chakana savdo tovar aylanmasining taqsimlanishini juda notekis deb atash mumkin, bunda Samarqand shahri yetakchi hisoblanadi va u 2023-yilda jami chakana savdo tovar aylanmasining 40,1% ni tashkil qilgan. Undan keyin Urgut (10,1%) va Samarqand tumanlari (6,0%) hissasiga to‘g‘ri kelgan (1-jadval). Chakana savdo aylanmasi hajmi bo‘yicha Urgut tumanining ikkinchi o‘rinda turishining asosiy sababi tumanda “Urgut erkin iqtisodiy zonasi”ning tashkil etilganligi hisoblanadi. Shu bilan birga, hududda faoliyat ko‘rsatayotgan chakana savdo korxonalarida tovarlarning sifati, assortimenti hamda korxonalar o‘rtasida erkin raqobat muhiti ta‘minlanganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

## 2-jadval

### Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan chakana savdo korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari<sup>9</sup>

Ko‘rsatkichlar	Yillar	“Makon mall savdo markazi”	“Family park savdo markazi”	“Indenin savdo tarmog‘i”	“LC Waikki savdo tarmog‘i”	“Bonasens savdo tarmog‘i”	“Red Tag savdo tarmog‘i”	“Urgut MALL”	“Urgut savdo kompleksi”
Sof foyda, mlrd. so‘m	2022	241,1	280,2	89,4	78,5	140,5	87,4	141,9	352,3
	2023	252,3	315,2	98,2	86,3	150,2	92,6	158,3	383,0
Mehnat unumdorligi o‘sishi %	2022	125,8	115,3	112,1	110,5	117,0	115,4	112,8	111,5
	2023	128,3	118,5	113,3	112,7	120,5	117,8	114,3	112,8
Fondlar qaytimi, so‘m	2022	1,43	1,52	1,11	1,15	1,23	1,10	1,27	1,30
	2023	1,48	1,58	1,24	1,17	1,24	1,14	1,28	1,32
Personal salohiyati %	2022	15,0	15,0	14,0	14,0	19,0	13,0	12,0	14,0
	2023	17,0	16,0	15,0	16,0	19,0	14,0	13,0	15,0
Mahsulot sotish rentabelligi %	2022	5,2	5,8	4,5	4,6	4,6	4,4	5,1	4,9
	2023	5,5	6,1	4,7	4,9	4,8	4,9	5,2	5,2
Asosiy fondlar rentabelligi, %	2022	3,3	3,9	3,2	3,5	3,3	4,0	3,5	3,4
	2023	3,6	4,1	3,5	3,6	3,5	4,3	3,7	3,5
Korxonaning joriy likvidligi	2022	0,27	0,29	0,21	0,20	0,25	0,20	0,26	0,27
	2023	0,28	0,30	0,22	0,21	0,26	0,22	0,27	0,28

Raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari tahliliga e‘tibor bersak, Samarqand shahridagi “Makon mall” savdo markazi va “Family park” savdo markazi savdo korxonalarida sof foyda hajmi tahlil etilayotgan boshqa savdo korxonalariga nisbatan yuqori bo‘lib, ularda mahsulot sotish rentabelligi 2023-yilda mos ravishda 5,5 % va 6,1 %ni tashkil etgan. Shuningdek, viloyatning Urgut tumanidagi “Urgut savdo markazi” va “Urgut MALL” savdo korxonalarida mahsulot sotish rentabelligi 2023-yilda mos ravishda 5,2 % va 5,2 %ni tashkil etgan (2-jadval).

Mazkur ko‘rsatkichlardan tahlil jarayonida foydalanish, chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini aniqlash hamda uning raqobatbardoshlik

<sup>9</sup>Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

salohiyati darajasi asosida viloyatdagi chakana savdo korxonalari faoliyatini baholash mumkin.

Chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligining xususiy ko'rsatkichlari nisbatlarini hisoblash quyidagi formula bilan aniqlanadi<sup>10</sup>:

$$I_{ij} = \frac{K_{ij}}{K_{\max}}, \quad (1)$$

bu yerda:  $I_{ij}$  – j-chakana savdo korxonasi uchun baholanishi lozim bo'lgan chakana savdo korxonalari o'rtasidagi raqobatbardoshlikning i-xususiy ko'rsatkichi qiymatining i-chi ko'rsatkichning maksimal qiymatiga nisbati.

$K_{ij}$  – j-chakana savdo korxonasi uchun raqobatbardoshlikning i-xususiy ko'rsatkich qiymati;

$K_{\max}$  – baholanishi lozim bo'lgan chakana savdo korxonalari uchun i-ko'rsatkichning maksimal qiymati.

Keyingi bosqichda muayyan ko'rsatkichning solishtirma ko'rsatkichi aniqlanadi.

Muayyan ko'rsatkichning solishtirma ko'rsatkichi quyidagi formula asosida hisoblanadi<sup>11</sup>:

$$KC_j = \sum_{i=1}^m I_{ij} \times W_i, \quad (2)$$

bu yerda:  $W_i$  – i - ko'rsatkichning vazn koeffitsiyenti.

Vazn koeffitsiyenti ekspert baholash usulida aniqlanadi.

Ekspert baholash usuli jarayonida ekspertlar tomonidan raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari 10 ballik shkala asosida baholanadi.

$$V_i = \frac{\sum K_i}{\max \sum K_i} \quad \text{yordamchi koeffitsiyent,} \quad (3)$$

$$W_i = \frac{v_i}{\sum v_i} \quad \text{vazn koeffitsiyenti,} \quad (4)$$

Uchinchi bosqichda, chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichini hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi<sup>12</sup>:

$$KC_{\text{comp}} = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^m KC_j, \quad (5)$$

n – raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari soni.

Ushbu formula asosida chakana savdo korxonalarilarining uch yillik davr mobaynidagi raqobatbardoshlik integral ko'rsatkichini aniqlandi.

Samarqand viloyatida chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish va samarali rivojlanishiga ularning tarkibiy qismlari alohida tizimlari ta'sirini reytingini aniqlashning xususiy ko'rsatkichlari asosida kompleks baholash

<sup>10</sup> [https://research.sfu-kras.ru/sites/research.sfu-kras.ru/files/Dissertaciya\\_Voloshin.pdf](https://research.sfu-kras.ru/sites/research.sfu-kras.ru/files/Dissertaciya_Voloshin.pdf)

<sup>11</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-otsenki-konkurentosposobnosti-vuza-na-oligopolisticheskoy-rynke-uslug>

<sup>12</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-otsenki-konkurentosposobnosti-vuza-na-oligopolisticheskoy-rynke-uslug>

zarurati faoliyat yo‘nalishlarini tizimlashtirish hamda alohida ko‘rsatkichlar bo‘yicha samaradorlikni aniqlash imkonini berdi.

Keyingi bosqichda chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshlik reytingi ishlab chiqildi. Hududiy chakana savdo korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va raqobat ustunligini ta‘minlanishi ularning rivojlanish samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan aniqlanadi. Ularning har biri chakana savdo korxonalarining natijalariga o‘z hissasini qo‘shadi.

### 3-jadval

#### Chakana savdo korxonalarining 2023-yil uchun raqobatbardoshlik reytingi<sup>13</sup>

Chakana savdo korxonalari	Yillar					
	2021-yil		2022-yil		2023-yil	
	Integral indeks	Reyting	Integral indeks	Reyting	Integral indeks	Reyting
“Makon Mall” savdo markazi	0,066	1	0,061	1	0,056	2
“Family Park” savdo markazi	0,044	2	0,059	2	0,068	1
“Red Tag” savdo tarmog‘i	0,028	4	0,031	5	0,032	5
“Bonasens” savdo tarmog‘i	0,025	5	0,033	4	0,041	3
“LC Waikiki” savdo tarmog‘i	0,033	3	0,036	3	0,038	4
“INDENIM” savdo tarmog‘i	0,010	6	0,011	6	0,012	6


3-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, faoliyat natijalarini integral indeks asosida baholash natijasida Samarqand hududida chakana savdo korxonalari ichida “Makon Mall” savdo markazi birinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, “INDENIM” savdo tarmog‘i oxirgi o‘rinda turibdi. Chakana savdo korxonalarida tanlab olingan asosiy ko‘rsatkichlarining dinamik tahlil natijalariga ko‘ra, kelgusida “Bonasens” savdo tarmog‘i reytingi nafaqat hududda, balki respublikada ham o‘rnini yaxshilab olish imkoniyatiga ega. “INDENIM” savdo tarmog‘ida reytingni pastligi bevosita moliyaviy salohiyatni oshirish hamda tovar raqobatbardoshligini ta‘minlashni nazarda tutadi.

Chakana savdo korxonalari oldida turgan eng muhim vazifa – bu turli xil iste‘molchilar segmentlarini maksimal darajada qamrab olish, bir nechta savdo kanallarini parallel ravishda rivojlantirish hisoblanadi. Shu bilan birga, bozorning to‘yinganligi sharoitida asosiy xarakterli xususiyatga ega bo‘lgan sifatli tovarlarni sotib olish istagidagi zamonaviy xaridor shakllanayotganini hisobga olish kerak. Zero, yuqori narx darajalariga qaramay, bugungi kunda iste‘molchilarning brend tovarlarga bo‘lgan qiziqishi kundan-kunga ortib bormoqda.

Bugungi kunda chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini integral ko‘rsatkichlar yordamida baholash muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy afzalligi

<sup>13</sup> Samarqand statistik ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

shuki, korxonaning moliyaviy imkoniyatlari, savdo-iqtisodiy faoliyat samaradorligi, moddiy-texnika bazasi va mehnat salohiyati shuningdek, tovar va brend raqobatbardoshligini kompleks baholash orqali ko'rsatkichlarni birlashtirish qobiliyatidan iboratdir. Raqobatbardoshlikning integral ko'rsatkichlarini hisoblashda 4-rasmda keltirilgan formulalar qo'llaniladi.



**4-rasm. Chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligining integral ko'rsatkichini hisoblash<sup>14</sup>**

Integral raqobatbardoshlikni tashkil etuvchi alohida ko'rsatkichlarning vaznini baholash uchun fokus-guruh usuli qo'llanildi. Bunda 10 kishidan iborat uchta guruh tuziladi. Mutaxassislar raqobatbardoshlikning alohida ko'rsatkichlarini o'n balli tizim bo'yicha baholab, har biriga vazn belgilaydilar. Shundan so'ng har bir ko'rsatkich bo'yicha ballar umumlashtiriladi va raqobatbardoshlikning har bir ko'rsatkichi doirasida o'rtacha ball hisoblanadi. Ushbu hisoblash usulining boshqalaridan tubdan farqi, koeffitsiyentlar yig'indisi birga teng bo'lganda, raqobatbardoshlikning turli j-chi determinantlarining vazn koeffitsiyentlarini aniqlashdadir. (4-jadval).

Formulada ko'rsatilganidek, ushbu uslub hisob-kitoblar paytida integral raqobatbardoshlikka salbiy va ijobiy ta'sir darajasini baholashga imkon beradi:

$$\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n \alpha_j y_i = 1 \quad (6)$$

bu yerda:  $\alpha_j$  – raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari uchun vazn koeffitsiyenti;

$y_i$  – i-respondent uchun ahamiyatlilik ko'rsatkichi,

<sup>14</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

$m$  - respondentlar soni,  
 $n$  - ko'rsatkichlar soni.

#### 4-jadval

### Integral raqobatbardoshlikni tashkil etuvchi ko'rsatkichlarning vazn koeffitsiyentlari<sup>15</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Vazn koeffitsiyentlari
1	Moliyaviy salohiyat	0,21
2	Savdo salohiyati	0,22
3	Tovarlarning raqobatbardoshligi	0,16
4	Mehnat salohiyati	0,11
5	Moddiy-texnik salohiyat	0,12
6	Brendning raqobatbardoshligi	0,18
<b>Jami</b>		1,00

Ushbu yondashuvlarni qo'llash korxonada faoliyatidagi zaif bo'g'inlarni o'z vaqtida aniqlash va ko'rsatkichlarni maqsadli ravishda moslashtirish, ularning eng oqilona qiymatlarini ta'minlash imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining "**Chakana savdo korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish**" deb nomlangan uchinchi bobida chakana savdo korxonalarini strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning konseptual modeli ishlab chiqilgan va chakana savdo korxonalarini strategik raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirilgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida chakana savdo korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish va samarali rivojlanishining istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Chakana savdo korxonalarining strategik raqobatbardoshligini ta'minlash uchun konseptual modelni yaratish har bir loyihalash bosqichining asoslanganligini, chakana savdo korxonalariga qo'yiladigan umumiy talablarni batafsil o'rganishni va rivojlanish vektorini aniqlash uchun individual xususiyatlarni keyinchalik korxonalarining alohida guruhlariga birlashtirishni nazarda tutadi. Algoritmning dastlabki ikki bosqichida korxonani tasniflash va korporativ strategiyaning xususiyatlarini tahlil qilish kerak, ya'ni tanlov jarayonining asoslanganligiga raqobatbardoshlikning konseptual modelini yaratishga ta'sir qiluvchi korporativ strategiya omillarini o'rganish orqali erishiladi. Shunga ko'ra, korxonalarini tasniflash, bozor strategiyasini tahlil qilish, raqobat strategiyalarini tanlash, strategik maqsadlarni belgilash hamda korxonalar raqobatbardoshligining strategik xaritasini shakllantirish asosida chakana savdo korxonalarining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning konseptual modeli ishlab chiqildi.

Chakana savdo korxonalarining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning konseptual modelini bosqichma-bosqich qurish raqobatbardosh strategiyalarini shakllantirish doirasida uning strategik maqsadlarini aniqlash imkonini beradi. Ular quyidagilardan iborat:

<sup>15</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

